

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ARXEOLOGIYA VA BUXORO TARIXI KAFEDRASI

BUXORO TARIXI MASALALARI
(eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

M A T E R I A L L A R I

2025-yil 5-dekabr

Buxoro – 2025

Ilmiy-amaliy anjuman Buxoro tarixi, manbashunosligi, tarixshunosligi, arxeologiyasi, etnografiyasi, numizmatikasi, shaharsozligi, madaniyat va san'ati sohalarida amalga oshirilayotgan eng yangi ilmiy natijalarni ilmiy jamoatchilikka yetkazish, fan va ta'limning uzviy bog'liqligini kuchaytirish maqsadida Buxoro davlat universitetida 2025-yil 5-dekabr kuni **"BUXORO TARIXI MASALALARI" (ENG QADIMGI ZAMONLARDAN HOZIRGACHA)** mavzusidagi Xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o'tkazildi.

Ushbu ilmiy to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro tarixi bilan qiziquvchilar, tarixchilar, magistrantlar va talaba yoshlarga mo'ljallangan

Mas'ul muharrir:

K.J.Rahmonov, BuxDU dotsenti, pedagogika fanlari doktori

Tahrir hay'ati va a'zolari:

O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor
K.A.Samiyev - ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
B.B.Namozov - Tarix v yuridik fakulteti dekani, f.f.d., professor
J.Sh.Haitov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası mudiri, t.f.d. (DSc)
Sh.A.Xaitov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası professori, t.f.d.
H.H.To'rayev - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası professori, t.f.d.
A.T.Ochilov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası professori, t.f.d. (DSc)
F.U.Temirov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.d. (DSc)
A.H.Ahmadov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, f.f.d. (DSc)
M.I.Niyazova - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.n.
M.B.Qurbonova - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.n.
A.H.Boltayev - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
B.B.Boltayev - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
SH.O'.Nosirov – Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Haitov J.Sh. – Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası mudiri
Nosirov Sh.O' – Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi

Konferensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 dekabrda 490-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq o'tkazilmoqda.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardir.

9. Toynbee, A. J. *Survey of International Affairs*. — London: Oxford University Press, 1925–1938. [10]
10. Bregel, Y. *An Historical Atlas of Central Asia*. — Leiden–Boston: Brill, 2003. — 202 b. [11]
11. Khalid, A. *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*. — Ithaca–London: Cornell University Press, 2015. — 441 b. [12]
12. Landau, J. M. *Pan-Turkism: From Irredentism to Cooperation*. — London: Hurst & Company; Bloomington: Indiana University Press, 1995. — 324 b. [13]
13. Brower, D. *Turkestan and the Fate of the Russian Empire*. — Princeton: Princeton University Press, 1997. — 280 b. [14]

BUXORO MA'RIFATPARVARI SAID AHRORIY QARASHLARIDA OILA VA XOTIN-QIZLAR MASALASI

Ahmadova Lola Asror qizi

BuxDU tayanch doktranti,

“Islom tarixi, manbashunosligi va falsafa” kafedrasi o'qituvchisi

Yurtimizda mustaqillik yillarida jadidchilik masalasi va jadidlar faoliyatiga e'tibor ortib, bu davrga oid juda ko'plab tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Shunday bo'lsada hali yurtimizda jadidlar ilmiy merosi va ma'rifatparvarlik faoliyati borasida hali tadqiqot etiladigan masalalar bisyor. Xuddi shunday Buxoro ma'rifatparvarlik faoliyatida o'zining munosib hissasini qo'shgan Buxoro jadidlaridan biri Said Ahroriy (1895-1931 yy) hisoblanadi. Said Ahroriyning matbuot organlaridagi faoliyati natijasida bir qator maqolalar chop ettirib ularda oila va xotin qizlar masalasi ham o'rin egallaganini ko'rish mumkin. Istiqlof fidoiysi bo'lgan Said Ahroriy 1918-1931-yillarda “Turk so'zi”, “Ishtirokiyun”, “Uchqun”, “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro”, “Zarafshon”, “Qizil O'zbekiston” gazetalarida hamda “Alanga”, “Maorif va madaniyat”, “Maorif va o'qituvchi” kabi jurnallarda o'nlab maqolalar, badia va she'rlar e'lon qildi.

“Buxoro jug'rofiyasi” nomli darslik, “Oila kitobi” (“Xonim-qizlarimizga tortiq” va “Sovchi” kabi ikki kitobdan iborat) ham Said Ahroriy qalamiga mansubdir. Said Ahroriy 1920-yilda Buxoroga kelib, BXSRR matbuot organi bo'lgan “Buxoro axbori” gazetasining 1920-yil 9-sentabrida dunyo yuzini ko'rgan birinchi sonidan 1921-yil 30-iyunda chiqqan 41-soniga qadar bosh muharrirlik vazifasida ishladi¹.

Said Ahroriyning oila mavzuiga bag'ishlangan turkum maqolalari 30-yillar arafasida “Xotin-qizlarimizga tortiq” degan nom ostida nashr etildi. Ammo, bu nom ostida chop etilgan risola Said Ahroriy rejalashtirgan oila kitobining birinchi qismi hisoblanadi. “Sovg'a” deb atalgan ikkinchi qism, afsuski, hozircha topilmagan. Said Ahroriyning bu risolasi bilan bog'liq o'zbek xotin-qizlarining XX asr boshlaridagi taqdiri haqida tasavvur beruvchi quyidagi lavhaga e'tibor bersak:

“Mundan bir necha yil muqaddam o'z aqrabolarim orasida shunday yuz ochuv rasmi bo'lub o'tmish edi. O'shal rasm bo'laturgan kuni man bir uyning derazasidan qarab turgan edimki, ko'zlari yoshla bir necha xotinlar ko'rpaga o'ralgan bir narsani go'shanga (chodir) tortilgan uydin ko'plashub olib chiqdilar. Ko'z oldimni xotinlar to'suvi sababli eshikni yopub, yorug'idan ohistagina diqqatlab qarab turdim. O'choqqa zo'r o't yoqub, qozon osdilar. Qozonga bir qadoq chamasi zig'ir moy soldilar. Bir tarafdin o'choq boshiga bir sufra yozub, ichiga biror taboq un soldilar. Darrov besho'n dona cho'bchirog' hozirlab, ikki-uch dona shag'amlar ila cho'bchirog'larni yondurub, sufradagi unga suqub qo'ydilar. Shul ishlar qiling'andan so'ng otunoyim kitobini qo'ltug'lab sufra boshiga o'turub, boyagi ko'rpaga o'ralgan narsani yerga kelturdi va o'z qo'li ila ko'rpani ochdi. Ba'zi xotunlar ohista-ohista ho'ngrab yig'lab yubordilar va ko'rpa ichidagi harakatsiz gavdaning boshini ko'tarub qo'ydilar. Shu holda bildimki, bechora kelinning navnihol g'uncha hayoti xazoni margg'a mubaddal bo'lub, o'lum yo'ldoshi bo'lgan ekan. Badanim seskanub ketub, ko'zimni zulmat qopladi. Haqiqatni bilmak uchun yana qarab

¹ Хайитов Ш. Биринчи муҳаррир. “Бухоронома”. 2003 йил 10 сентябр

turdim. Alhosil, ul jasadning qo'llari ila undan changallatub qozonga soldirdilar va o'choqg'a ta'zim qildirdilar. Otin oyim jasadga qarab: "Endi eringizning haq-xizmati bo'yingizdan soqit bo'ldi. Sizdan qaynota, qaynonalaringiz ham rozi bo'ldi" – dedi. Bundan so'ng ul bechoraning ruhsiz jasadini yana ko'rpaga o'rab, go'shagalik uyga olub kirdilar..."¹.

Bu daxshatli hikoya Hamzaning "Bid'atmi? Majusiyatmi?" degan publitsistik maqolasidan olindi. Biz garchand bu lavhaga nisbatan hikoya so'zini ishlatgan bo'lsak-da, Hamza uni xalqimiz orasida o'zi ko'rgan bid'at va majusiyat ko'rinishlaridan biri, deb atagan va shunday talqin qilgan. Agar bu maqolaning 1914-yili «Sadoi Turkiston» gazetasida chop etilganini nazarda tutsak, demak, xotin qizlarga nisbatan shunday haqoratli munosabat o'sha davrda mavjud bo'lgan. Jadidlar o'zlarining xotin-qizlarga, oilaga bo'lgan munosabatlarida Qur'oni Karimdagi huquqiy qarashlardan kelib chiqqan holda voqelikdagi majusiylik davridan qolgan shunday illatlarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Ular xotin-qizlarning Qur'onda ko'zda tutilgan huquqlarini qattiq himoya qildilar². Lekin davrlar o'tishi va 1917-yil voqealaridan keyin o'zgacha bir davrning kelishi va xotin qizlarni huquq borasida erkaklar bilan tenglashtirilishi natijasida oila masalalariga bag'ishlangan yangi risola va kitoblar yaratilishiga ehtiyoj tug'ildi. Said Ahroriy ana shu ehtiyoj taqozosi bilan o'zining ikki qismdan iborat oila kitobini yaratdi. "Xotin-qizlarimizga tortiq" deb nomlangan birinchi risolada biz jadidchilik harakati namoyandalarning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati zamonaviylashgani, madaniylashgani va latiflashganini ko'ramizki, bu muallifning "sevimli rafiqa"sig'a bag'ishlangan va shu risoladan joy olgan quyidagi satrlaridanoq sezilib turadi:

Yo'qsilliklar, ayriliqlar mani butun ezganda...
Yolg'izlikning nashtarleri yuragimni teshganda,
Hayotimning bahorini sen keltirding birlikda,
Sen kelgan kun ruhim teran sevgilar-la bezandi³.

Risola so'zboshidan tashqari, "Nima qilish kerak?", "Bir kunning ishlari", "Xafta va oy ichida", "Og'ir ishlar" va "Tasarrufga rioyat" degan maqolalardan iborat bo'lib, ularda yangi turmush qurayotgan xotin-qizlarga ularning oiladagi burch va vazifalari haqida tushunchalar beriladi. Risolaning "Tasarrufga rioyat" deb nomlangan faslida Said Ahroriy har bir oilada qandaydir kam-ko'st, ehtiyoj bo'lishi mumkinligini aytib, xotin-qizlarning shunday sharoitda vijdonlarining buyruqlariga toqat ko'rsata olmay, nafslariga tobe' bo'lishlari mumkinligini aytib, yozadi: "Misol: ba'zi odamlar bordirki, taqdirlari, kiyimlari, uylari, joylari, deganlari, ishlari bordir. Lekin ehtiyojdan qutila olmaslar. Ehtimolki, bunday odamlarning ham boshqa ehtiyojlari bordir. Negakim, bunlarning o'qimoqlari, bolalarni o'qitmoqlari, sayohatga chiqmoqlari bordirki, bunday ishlarning manfaati o'zlaridan boshqa xalq uchun ham zarurdir. Xalqning ehtiyoji esa ulug'dir, muqaddasdir. Mamlakatimizning abadiyligi, xalqimizning taraqqiysi uchun bizda ehtiyojdan ko'p nima bordir? Demak, anglashiladiki, siz xonimlar, ehtiyoj ichida ezilib qolsangiz, uyingiz vayron va yurtimiz parishon bo'ladir. Binobarin, ehtiyojni bo'ldirmoq uchun bor aslingizni, bor kuchingizni sarf etingiz"⁴.

Ta'kidlash joizki jadidlar o'zlarining qarashlarida xotin qizlar masalasiga ham e'tibor qaratib, ularning ilm olishi, ta'lim saboqlarini egallashini o'zlarining bosh maqsadlaridan qilib belgilaganlarini ko'rishimiz mumkin. Said Ahroriyning ham asarlarida va matbuotdagi maqolalarida xotin qizlarni muqaddas xilqat ekanligi, ularga nazokat va iffat bilan boqish kerakligi kabi jihatlar keltirilib o'tilgan. Xususan 1923-yilning 6-noyabrda Ozod Buxoro sahifalarida chiqqan Said Ahroriy qalamiga mansub "Xotun" maqolasida xuddi shunday mazmunni tushunish mumkin.

Xulosa qilish mumkinki Said Ahroriy xotin-qizlarga, ularning oila va jamiyatdagi tutgan o'miga alohida ahamiyat qaratish kerakli, ayollarga bo'lgan salbiy munosabatni o'zgartirish davri kelganligini o'zining ijodi orqali yoritgan. Jadidlarning xotin-qizlarga bo'lgan munosabatni

¹ Sharipov R. E'tiqod va ijod uyg'unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. B.60-61.

² Sharipov R. E'tiqod va ijod uyg'unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. -B.61.

³ Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2001. – B. 72.

⁴ Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2001. – B. 84.

o'zgartirish davri kelganligini, ularni erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi kabi masalarda Buxoro jadidlari singari Said Ahroriyning ham xizmatlari beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайитов Ш. Биринчи мухаррир. "Бухоронома". 2003 йил 10 сентябр
2. Sharipov R. E'tiqod va ijod uyg'unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. B.60-61.
3. Sharipov R. E'tiqod va ijod uyg'unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. B.61.
4. Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2001. – B. 72.
5. Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2001. – B. 84.

**BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIIY-MADANIY HAYOTIDA YOSH
BUXOROLIKLARNING TUTGAN O'RNI**

F.U.Temirov
t.f.d (DSc) dotsent
Ro'ziyev Abduvali
BuxDU tarix ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Аннотация. В данной статье на примере движения «Молодые бухарцы» рассматривается научно-просветительское наследие джадидов, формирование просветительского и джадидского движения в Бухаре, возникновение общества «Молодые бухарцы», а также деятельность джадидов в сферах образования, печати, литературы и общественных реформ с современной точки зрения. Научно обосновано, что идеи, выдвинутые джадидами, могут служить прочной основой для нынешнего периода Третьего Ренессанса. Подчеркивается необходимость рассматривать джадидизм не как историческое явление, а как научно-духовный источник, который должен активно участвовать в современном общественном развитии. Также анализируются другие связанные проблемы.

Ключевые слова: Молодобухарцы, Абдурауф Фитрат, Садриддин Айни, Мунзим, духовность, просвещение, трагедия, Садриддин Салим Бухари, курбоши, интеграция, Иран, Стамбул, большевики, Файзулла Ходжаев

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi bosqichi-Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yilmoqda. Bu jarayonning mafkuraviy va tarixiy ildizlari esa XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatiga, jumladan „Yosh buxoroliklar“ harakatiga borib taqaladi. Jadidlar-o'zbek xalqining uyg'onishiga asos solgan, xalqni ilm-ma'rifatga, taraqqiyotga yetaklagan fidoiylar edi. Ularning boy ma'naviy -ma'rifiy merosi hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ko'p marotaba jadidlar, xususan, Yosh buxoroliklar harakati haqida to'xtalib o'tgan. U 2021-yil 30-aprel kuni Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida shunday degan edi: „Yosh buxoroliklar -bu xalqimizning faxri. Ular nafaqat Buxoroni, balki butun Markaziy Osiyoni uyg'otgan, bu yurtda ma'naviy inqilobni boshlab bergan jasur zotlar edi.“ Bu so'zlar bejiz emas. Chunki yosh buxoroliklar-xalq orasida milliy o'zlikni uyg'otgan, eskilikdan voz kechib, yangilanish sari intilgan jasoratli ziyolilar edi. Ular qoldirgan boy meros ,ilg'or g'oyalar, islohotchi tafakkur bugungi Uchinchi Renessans davrida yoshlarga ilhom manbai bo'lmoqda. Ularning faoliyati bugungi yosh avlodga mustahkam saboq bo'lib xizmat qiladi. Jadidlar, xususan yosh buxoroliklar, o'z hayotlarini xalq taraqqiyoti, erkinligi, ma'rifati yo'lida fido qildilar. Shu bois ularning harakati -bu tarix emas, balki bugunning ham, kelajakning ham ildizidir. Mazkur maqolada yosh buxoroliklar harakatining mazmun -mohiyati, ularning o'z zamonasiga va bugungi islohotlarga ko'rsatgan bevosita ta'siri tahlil qilinadi hamda bu harakatning Uchinchi Renessans poydevoridagi o'rni ochib beriladi.

Abdullayeva Nargiza Abduhalimovna. SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORODA ME'MORCHILIK.....	208
Дилдора Норова, БУХОРО ХАЛҚАРО ЗАРДЎЗЛИК ВА ЗАРГАРЛИК ФЕСТИВАЛИ ВА ХУНАРМАНДЧИЛИК АНЪАНАЛАРИ.	211
Xalikova Nargiza Erkinovna. SO'G'D NUMIZMATIKASI BO'YICHA BUXORO DAVLAT MUZEYI FONDIDAN MATERIALLAR.....	213
Zaripova Sarvinov Xusen qizi. SOVETLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT	214
Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi. BUXORO VILOYATIDA TARIXIY-MADANIY TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	217
Elmurodova Nigora Jobir qizi. BUXORO MADRASALARI VA ULARNING TA'LIM TIZIMI XIX ASR MANBALARIDA: YEVROPA VA ROSSIYA ELCHILARI QAYDNOMALARI ASOSIDA	219
G'afurova N.N. BUXORONING ME'MORIY MEROSI VA KULOLCHILIK AN'ANALARI: NODIR DEVONBEGI XONAQOSI MISOLIDA	222
Султонова Нигина Шералиевна. МУЗЕЙ - ОСНОВНОЕ ЗВЕНО В ПРОДВИЖЕНИИ НАШЕГО НАЦИОНАЛЬНОГО РЕМЕСЛЕННОГО НАСЛЕДИЯ.....	223
To'rayeva Nigina Baxodir qizi. BUXORO VILOYATIDA IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR TAHLILI (XX ASRNING 50-80 YILLARI)	226
Baxtiyrov Behruz Bobirovich. ZANDANA QISHLOG'I HAQIDA	228
Mamasharifova Shahloxon Muxtorxon qizi. BUXORO MADRASALARI TARIXIDAN	232
Rustamova Shaxina O'ktam qizi. BUXORO ME'MORCHILIGI VA YODGORLIKLARI	234

8-SHO'BA. BUXORO JADIDLARINING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLIYATI VA ILMIY (MA'RIFATPARVARLAR, TARAQQIYPARVARLAR) MEROSINI O'RGANISH.

Temirov Farrux Umedovich. SADRIDDIN AYNIIY PUBLITSISTIK IJODIDA VATANPARVARLIK, MAKTAB VA MAORIF MASALASI.....	237
O'rinova B.Z. MUSTAQILLIK - JADIDLAR VA JADID MATBUOTIDAGI DEMOKRATIK MILLIY G'OYALARNING AMALDAGI IFODASI	239
Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o'g'li. BUXOLIK JADID MUSO SAIDJON VA UNING "GO'RI AMIR" ASARI HAQIDA	242
Azimova K.K. JADID MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI VA TARBIYA (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)	245
Azimova K.K. USMON XO'JA PO'LATXO'JAYEVNING JADIDCHILIK HARAKATI VA YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASI BORASIDAGI ISHTIROKI	247
Tadjitdinov Vohid Komilovich. ITTIHOD VA TARAQQIY JAMIYATINING BUHORO JADIDLARI FAOLIYATIGA TA'SIRI	248
Ahmadova Lola Asror qizi. BUXORO MA'RIFATPARVARI SAID AHRORIY QARASHLARIDA OILA VA XOTIN-QIZLAR MASALASI.....	250
F.U.Temirov, Ro'ziyev Abduvali. BUXORO AMIRLIGI IJTIMOY-MADANIY HAYOTIDA YOSH BUXOROLIKLARNING TUTGAN O'RNI.....	252
Shaxzod Yodgorov. BUXORO JADIDLARINING MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI	255
Raxmatulloyev Umid Ashrafovich. BUXORO JADIDLARINING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLIYATI VA AYANCHLI TAQDIRI.	257
Hasanov Maxmudjon Husniddinovich, Raxmonov Kamol Djamolovich. MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TA'LIMIY QARASHLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	259
Eshmurotova Marjona Pulat qizi, O.A.Maxmudov. O'ZBEKISTONDA MADANIY HAYOT: BUXORO JADIDLARINING MA'RIFIY MEROSI (1941-1945 –YILLAR).....	261
Jabborov Avazbek Aloviddin o'g'li, VADUD MAXMUDNING BOLALIK XOTIRALARI..	264
Samadov G'olibjon Zaynidinovich. SADRIDDIN AYNIIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA TOZALIK VA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING TASVIRI.....	266